

MASTERCARD'dan iTicket'da chegirmalar aksiyasini o'tkazish QOIDALARI

E'lon qilingan sana:

1. Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur aksiya (keyingi o'rinlarda — "Aksiya") marketing tadbiri hisoblanadi, lotereya yoki qimor o'yini emas, unda ishtirok etish uchun to'lov talab etilmaydi, yutuqni olishda xavf yoki tasodifiylik elementlarini o'z ichiga olmaydi hamda "MASTERCARD'dan iTicket'da chegirmalar" aksiyasini o'tkazish bo'yicha mazkur Qoidalarga muvofiq o'tkaziladi.

Aksiya MASTERCARD to'lov tizimini targ'ib qilishga qaratilgan.

1.2. **Aksiya tashkilotchisi** — iTicket.uz.

1.3. Aksiya O'zbekiston Respublikasi hududida o'tkaziladi.

1.4. **Aksiyaning boshlanish sanasi:** 2026-yil 8-iyul.

1.5. **Aksiyaning yakunlanish sanasi:** 2026-yil 31-dekabr.

2. Qoidalarda foydalaniladigan atamalar va ta'riflar

Aksiyani faollashtirish — Qoidalarning 3-bo'limiga muvofiq foydalanuvchining Aksiyada ishtirok etishga roziligini tasdiqlovchi harakatlarni amalga oshirishi.

Foydalanuvchi — litsenziya shartnomasi shartlariga muvofiq iTicket'dan foydalanuvchi jismoniy shaxs.

MASTERCARD kartasi — bank tomonidan chiqarilgan hisob-kitob/debet kartasi, kredit kartasi yoki oldindan to'langan karta bo'lib, ushbu karta orqali iTicket saytida buyurtma rasmiylashtirilganda, Aksiya shartlariga muvofiq Aksiya ishtirokchisiga chegirma taqdim etiladi.

Aksiyada ishtirok etuvchi kartalar ro'yxati Tashkilotchilar tomonidan istalgan vaqtda Foydalanuvchilarga qo'shimcha xabar bermasdan bir tomonlama tartibda o'zgartirilishi mumkin.

Chegirma — iTicket sayti yoki mobil ilovasida chipta rasmiylashtirilganda, Qoidalarning 4-bo'limida ko'rsatilgan shartlarga muvofiq chiptalar qiymatining kamaytirilishi.

Aksiya ishtirokchisi / Ishtirokchi — Aksiya Qoidalariga mos keluvchi va Aksiyani faollashtirgan Foydalanuvchi.

3. Aksiyada ishtirok etish tartibi

3.1. Aksiyada ishtirok etish uchun quyidagilar zarur:

iTicket sayti yoki ilovasida avtorizatsiyadan o'tish;

buyurtmalarni rasmiylashtirishda to'lov usuli sifatida MASTERCARD kartasini tanlash;

iTicket orqali buyurtma qilingan xizmatlar qiymatini ulangan MASTERCARD kartasi yordamida muvaffaqiyatli to'lash.

4. Chegirma

4.1. Aksiya o'tkazilayotgan davrda Ishtirokchilarga quyidagi chegirmalar taqdim etiladi:

Chegirma turi: MASTERCARD egalari uchun chegirma — 10%.

Chegirma haqida ma'lumot va undan foydalanish tartibi: iTicket sayti va ilovasida rasmiylashtirilgan buyurtma uchun 10% miqdorida chegirma.

Chegirmaning maksimal miqdori: 50 000 (ellik ming) so'm.

5. Aksiya tashkilotchisining huquq va majburiyatlari

5.1. Aksiya tashkilotchilari Aksiyani mazkur Qoidalar va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda o'tkazish majburiyatini oladilar.

5.3. Tashkilotchilar Chegirmalardan foydalanish imkoniyatini taqdim etadilar, biroq Ishtirokchini qo'shimcha ravishda xabardor qilish yoki Chegirmadan foydalanishni ta'minlash majburiyatini olmaydilar. Ishtirokchi Aksiyada mustaqil ravishda ishtirok etadi hamda Chegirmadan foydalanish bo'yicha qarorni mustaqil qabul qiladi.

5.4. Tashkilotchilar Ishtirokchining Aksiyadagi ishtirokini haqiqiy emas deb topish, shuningdek, buyurtma bekor qilingan holatlarda ham Ishtirokchiga Chegirma taqdim etishni rad etish huquqiga ega.

5.5. Tashkilotchilar Aksiya ishtirokchisi Chegirmani olish va undan foydalanish bilan bog'liq ravishda qilishi mumkin bo'lgan qo'shimcha xarajatlarni qoplamaydilar.

6. Boshqa shartlar

6.1. Amaldagi buyurtma doirasida to'lov usuli o'zgartirilgan taqdirda, Chegirma taqdim

etilmaydi.

6.2. Tashkilotchilar ushbu Aksiyani to'xtatib turish, bekor qilish yoki uning shartlarini istalgan vaqtda sabablarni tushuntirmasdan o'zgartirish huquqini o'zida saqlab qoladilar.

6.3. Aksiyada ishtirok etish orqali Ishtirokchi mazkur Shartlarga to'liq va so'zsiz rozilik bildiradi.

6.4. Aksiyani tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq shikoyatlar Ishtirokchilar tomonidan iTicket sayti orqali yuborilishi mumkin

6.5. Chegirmalar faqat mazkur Qoidalarga muvofiq taqdim etiladi. Chegirmani naqd pul ko'rinishida kompensatsiya qilish mumkin emas. Tashkilotchilar Ishtirokchining Aksiyada ishtirok etishi bilan bog'liq ravishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlar, xarajatlar va boshqa har qanday sarf-xarajatlarni qoplamaydilar yoki kompensatsiya qilmaydilar.

6.6. Chegirmani nohalol tarzda olishning oldini olish maqsadida Tashkilotchilar Foydalanuvchilar tomonidan suiiste'mollik va/yoki nohalol harakatlarni aniqlash uchun mazkur Qoidalarda bevosita ko'rsatilmagan tekshiruv usullarini qo'llash huquqini o'zida saqlab qoladilar.

Tashkilotchilar mazkur Qoidalar va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi buzilganligi yuzasidan asosli shubhalar mavjud bo'lgan taqdirda, o'z xohishiga ko'ra shaxsga Ishtirokchi maqomini berishni rad etishga haqli.

Agar ushbu bandeda ko'rsatilgan holatlar Chegirma taqdim etilganidan keyin aniqlansa, Chegirma 5 (besh) ish kuni ichida avtomatik tarzda bekor qilinadi. Shu munosabat bilan Foydalanuvchiga xizmatlarning Chegirmasiz to'liq qiymati qo'llaniladi.

Tashkilotchilar quyidagi belgilar asosida suiiste'mollik va/yoki nohalol harakatni o'z xohishiga ko'ra aniqlash huquqiga ega:

Ishtirokchi Aksiyada odatiy ishtirok sharoitlarida taqdim etilmaydigan foydani olgan bo'lsa;

Ishtirokchi chegirmalarni uchinchi shaxslarga bergan, sotgan va/yoki boshqa tarzda taqdim etgan bo'lsa;

Ishtirokchi bloklash yoki cheklovlarni chetlab o'tishga uringan, bloklangandan keyin qayta ro'yxatdan o'tgan bo'lsa;

Ishtirokchi firibgarlik, huquqni suiiste'mol qilish yoki nohalol xatti-harakat belgilariga ega bo'lgan harakatlarni amalga oshirgan bo'lsa.

6.7. Qoidalarni turlicha talqin qilishga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan vaziyatlar va/yoki mazkur Qoidalarda tartibga solinmagan masalalar yuzaga kelgan taqdirda, bunday talqin qilish va/yoki tushuntirish bo'yicha yakuniy qaror bevosita va faqat Tashkilotchilar tomonidan qabul qilinadi.